Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 378
PEDAGOGIKA

SEL METODIKASI ASOSIDA NOFILOLOGIK YO'NALISH TALABALARIGA INGLIZ TILINI O'QITISHNING METODIK XUSUSIYATLARI

Zulfiya Ravshanovna Baxronova*
Xorijiy tillarini o'qitish metodikasi kafedrasi o'qituvchisi Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
✉ zulfiyabaxronova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Social and Emotional Learning - ijtimoiy-emotsional ta'lim (SEL) metodikasini pedagogika, psixologiya kabi nofilologik ta'lim yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitish jarayoniga integratsiya qilishning ilmiy metodik xususiyatlari tahlil qilinadi. SEL kompetensiyalarini kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili, kommunikativ ta'lim, muammoli topshiriqlar, hamkorlikda o'qitish va refleksiv faoliyat bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlari asoslanadi.

Kalit so'zlar

SEL, ijtimoiy-emotsional ta'lim, nofilologik ta'lim, kasbiy kommunikativ kompetensiya, refleksiya, hamkorlikda o'qitish.

DOI: 10.5281/zenodo.21743895

KIRISH

Zamonaviy ingliz tili ta'limining mazmuni faqat grammatik jihatdan to'g'ri nutqni shakllantirish bilan cheklanmaydi. Bugungi kunda ta'lim oluvchilardan turli manbalardan olingan axborotni tanqidiy talqin qilish, muayyan masala yuzasidan mustaqil pozitsiyani shakllantirish, jamoada samarali hamkorlik qilish, notanish va murakkab muammolarga maqbul yechim topish, shuningdek, qabul qilingan qarorlarni og'zaki hamda yozma shaklda asosli ifodalash talab etiladi. Mazkur talablar an'anaviy, asosan ma'ruzaga va tayyor bilimlarni uzatishga asoslangan ta'lim modelining imkoniyatlari cheklanganligini ko'rsatadi. Bunday yondashuv doirasida talabalar yetarli hajmdagi grammatik, leksik va nazariy bilimlarni egallashlari mumkin, biroq o'zlashtirilgan til materialidan kasbiy muammolarni o'rganish, axborot izlash, fikr almashish va qaror qabul qilish vositasi sifatida foydalanishda qiyinchiliklarga duch keladilar.

Mazkur muammoni hal etishning samarali pedagogik yondashuvlaridan biri muammoga asoslangan o'qitish - Problem-Based Learning (PBL) hisoblanadi. Ushbu yondashuvda ta'lim jarayoni nazariy ma'lumotlarni tayyor shaklda bayon etishdan emas, balki ochiq yechimga ega bo'lgan, real hayot yoki kasbiy faoliyat bilan bog'liq muammoli vaziyatni taqdim etishdan boshlanadi. Globallashuv, xalqaro hamkorlik va akademik mobillikning kengayishi sharoitida nofilologik ta'lim yo'nalishlari talabalarining ingliz tilini kasbiy faoliyat vositasi sifatida egallashi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, pedagogika, psixologiya yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ingliz tilidagi ilmiy va kasbiy axborotni tushunish bilan cheklanib qolmasdan, sohaga oid muammolarni muhokama qilish, turli nuqtayi nazarlarni taqqoslash, dalillarni tanqidiy tahlil etish, o'z pozitsiyasini asoslash hamda hamkorlikda qaror qabul qilish ko'nikmalariga ham ega bo'lishlari zarur.

Xorijiy tilni o'rganish nafaqat kognitiv, balki emotsional va ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan murakkab pedagogik jarayondir. Talabaning o'z imkoniyatlariga ishonishi, kommunikativ xavotir darajasi, ichki va tashqi motivatsiyasi, guruhdagi psixologik muhit, tengdoshlari bilan munosabati hamda xatolarga bo'lgan munosabati

uning chet tilidagi faolligi va ta’lim natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [1]. Ayniqsa, xato qilishdan qo‘rqish, salbiy baholanish xavfi va o‘z fikrini erkin ifodalashdagi ishonchsizlik talabalarning kommunikativ tashabbusini cheklashi mumkin. Shunga ko‘ra , ijtimoiy-emotsional ta’lim - Social and Emotional Learning (SEL) metodikasini ingliz tili darslariga integratsiya qilish muhim metodik ahamiyatga ega. SEL - shaxsning hayotiy muhim maqsadlarga erishish uchun fikrlash, his qilish va xulq-atvorni o‘zaro uyg‘unlashtirish qobiliyatini rivojlantirish jarayonidir[2]. U o‘quvchining kognitiv qobiliyatlarini jismoniy, ijtimoiy va emotsional tizimlar bilan bog‘liq holda rivojlantirishni nazarda tutadi. Xorijiy tilni o‘rganishdagi asosiy determinantlardan biri motivatsiyadir. Gardnerning ijtimoiy-ta’limiy modeliga ko‘ra, integrativlik va o‘quv vaziyatiga munosabat shaxsning til o‘rganish motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlaydi, ammo yakuniy natijaga bevosita ta’sir etuvchi kuch motivatsiyadir[3] Alizadeh, M. (2016). The impact of motivation on English language learning.

CASEL konsepsiyasida SEL shaxsning o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy vaziyatlarni tushunish, munosabatlar o‘rnatish va mas’uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradigan ta’limiy jarayon sifatida izohlanadi [4]. Mazkur model quyidagi beshta kompetensiyani qamrab oladi:

1. O‘zini anglash;
2. O‘zini boshqarish;
3. Ijtimoiy anglash;
4. Munosabatlar o‘rnatish ko‘nikmalari;
5. Mas’uliyatli qaror qabul qilish.

Ushbu kompetensiyalarni turli yosh va madaniy muhitlarga moslashtirish mumkin. Biroq SELni oliy ta’limga joriy etishda maktab o‘quvchilari uchun ishlab chiqilgan faoliyatlarni aynan takrorlash emas, balki ularni talabalarning akademik va kasbiy vazifalariga moslashtirish talab etiladi. Pedagogika yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini o‘qitishda kasbiy muloqot, sinfni boshqarish, o‘quvchini qo‘llab-quvvatlash va konstruktiv qayta aloqa bildirish vaziyatlari ustuvor bo‘lishi lozim. Bo‘lajak o‘qituvchi ingliz tilidagi terminlarni bilish bilan birga, o‘quvchi bilan hurmatli muloqot qilish, dars jarayonidagi muammolarni tahlil etish va pedagogik qarorlarni asoslashni ham o‘rganishi zarur.

Quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:
microteaching;
pedagogik keyslar;
o‘qituvchi–o‘quvchi dialoglarini modellashtirish;
darsni kuzatish va qayta aloqa berish;
guruhda dars loyihasini ishlab chiqish;
refleksiv pedagogik kundalik.

Masalan, talabalar darsdagi faolligi pasaygan o‘quvchi haqidagi vaziyatni muhokama qilib, ingliz tilida ehtimoliy sabablarni aniqlaydi va pedagogik yordam rejasini ishlab chiqadi. Topshiriqda *I have noticed that…*, *One possible reason may be…*, *I suggest…* va *A supportive response would be…* kabi nutq birliklari qo‘llaniladi. O‘qituvchining emotsional qo‘llab-quvvatlashi talabalarning o‘ziga ishonchi, o‘quv bardoshliligi va faolligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligi zamonaviy empirik tadqiqotlarda ham ko‘rsatilgan [5].

Psixologiya yo‘nalishida ingliz tili o‘qitishning asosiy xususiyati kasbiy terminologiyani faol tinglash, kuzatish, savol berish, fikrni qayta ifodalash va ehtiyotkor xulosa chiqarish ko‘nikmalari bilan birlashtirishdan iborat.

Talabalar quyidagi faoliyatlarni bajarishi mumkin:

- neytral psixologik-pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish;
- ochiq va yopiq savollarni tuzish;
- fikrni hukmsiz qayta ifodalash;
- kuzatuv va talqinni farqlash;
- ilmiy matnlarni qisqacha bayon qilish;
- refleksiv hisobot yozish.

Mazkur mashg‘ulotlarda *If I understand correctly…, You seem to be saying that…, The evidence may suggest…* va *This conclusion should be treated cautiously* kabi kommunikativ qoliplardan foydalanish mumkin.

PBL va SEL metodikalarining o‘zaro integratsiyasi ingliz tili ta’limining kognitiv, kommunikativ, ijtimoiy va emotsional jihatlarini uyg‘unlashtirish imkonini beradi. PBL talabalarni real yoki kasbiy muammolarni mustaqil va hamkorlikda hal etishga yo‘naltirsa, SEL mazkur faoliyatning psixologik jihatdan xavfsiz, o‘zaro hurmatga asoslangan va emotsional jihatdan qo‘llab-quvvatlovchi muhitda amalga oshirilishini ta’minlaydi. Bunday integrativ yondashuvda talabalar nafaqat muammoning yechimini topadilar, balki sheriklarining fikrini tinglash, turli qarashlarni hurmat qilish, o‘z hissiyotlarini boshqarish, guruh oldidagi mas’uliyatini anglash va umumiy qarorga kelishni ham o‘rganadilar.

XULOSA

Demak, nofilologik ta’lim yo‘nalishlarida ingliz tilini PBL va SEL metodikalari asosida o‘qitish talabalarning til bilimlarini real kommunikativ va kasbiy vaziyatlarda qo‘llashiga xizmat qiladigan istiqbolli pedagogik yondashuvdir. Ushbu metodik integratsiya talabalarda ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiya bilan bir qatorda tanqidiy fikrlash, mustaqil izlanish, jamoaviy hamkorlik, refleksiya, emotsional barqarorlik va mas’uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Natijada ingliz tili darsi til birliklarini o‘zlashtirishga qaratilgan an’anaviy mashg‘ulotdan talabani kelajakdagi akademik, ijtimoiy va kasbiy faoliyatga tayyorlovchi yaxlit rivojlantiruvchi ta’lim muhitiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Melani, B. Z., Roberts, S., & Taylor, J. (2020). Social-emotional learning practices in learning English as a second language. *Journal of English Learner Education, 10*(1), Article 3
2. Zins, J. E. (2004). Building Academic Success on Social and Emotional Learning.
3. Alizadeh, M. (2016). The impact of motivation on English language learning.
4. Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning. (2020). *CASEL’s SEL framework: What are the core competence areas and where are they promoted?*
5. Guo, W., et al. (2025). The impact of teacher emotional support on learning engagement: The mediating roles of academic self-efficacy and academic resilience. *Scientific Reports*.
6. Toshtemirov O., Jo‘rayev R. Ta’limda kompetensiyaviy va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlar. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
7. Abduqodirov A., Begimqulov U. Raqamli ta’lim muhitida pedagog kadrlarni tayyorlashning metodologik asoslari. - Toshkent: Fan, 2020.